

BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA SO'ZLARNI KO'CHMA MA'NODA QO'LLASHNI O'RGATISH USULLARI

Turdimurodova Avazgul

Denov tadbirkorlik va pedagogika intituti 2-kurs magistranti

Narziyeva Xabiba

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 2-kurs magistranti

Annotatsiya

Maqolada yosh avlodni so'zga bo'lgan mehrini o'strish va ona tilining jahondagi o'rni, so'z ma'nolarini anglashdan boshlanishini ilmiy jihatdan talqin etildi. Hozirda, shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda, ona tilimizni o'rni va qadri so'z ma'nolarining to'g'ri anglanishi bilan belgilanmoqda. Unchalik muhim bo'lib ko'rinmayotgan bo'lsada, so'zlarni ma'nosidagi to'g'ri talqin, tilimizning va davlatimizning jahonda o'rnini belgilab qo'yishi dolzarb muammolardan biridir.

Kalit so'zlar: ona tili, o'rni, usul, so'z, talaffuz, nutq madanyati, globallashuv, pedagog, muhit.

Аннотация. В статье научно объясняется, что воспитание у молодого поколения любви к слову и понимания места родного языка в мире начинается с понимания значения слов. В наше время, в эпоху бурного развития, место и ценность родного языка определяется правильным пониманием значений слов. Одним из наиболее актуальных вопросов является правильная интерпретация значения слов, даже если это не кажется таким уж важным, и место нашего языка и государства в мире.

Ключевые слова: родной язык, место, метод, слово, произношение, культура речи, глобализация, педагог, среда.

Abstract

The article scientifically explains that cultivating the young generation's love for words and understanding the place of the mother tongue in the world begins with understanding the meaning of words. Nowadays, in an era of rapid development, the place and value of our native language is determined by the correct understanding of the meanings of words. One of the most pressing issues is the correct interpretation of the meaning of words, even if it does not seem so important, and the place of our language and state in the world.

Keywords: native language, place, method, word, pronunciation, speech culture, globalization, pedagogue, environment

Kirish

Hozirgi rivojlanayotgan jamiyatda ilm-fanga berilayotgan imkoniyatlar keng qamrovlidir. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev aytganlaridek: “Uchinchi renessansni men o’qituvchilar bilan qurmoqchiman“[2]. Bu so’zlar zamirida biz pedagoglar zimmasiga juda ko’p narsalar bog’liqligidan dalolat beradi. Inson dunyoga kelar ekan, avvalo, oila a’zolari va atrofdagilar ko’magida milliy va ilmiy tarbiyani olib so’zga bo’lgan qiziqishlari ortadi va o’z ona tilidan foydalana boshlaydi o’zligini anglash, birinchi navbatda ona Vatanga, ona tiliga bo’lgan hurmatdan boshlanadi.

Tilimizdagi so’zlar rang barang va ma’no qirralariga boydir. Yozuvchimiz Maqsud Shayxzoda so’zlarni tashkil etuvchi tovushlarimizga shunday ta’rif bergan.

Har bir harfning yuzi, ko’zi bor,

Har bir harfning hidi, bo’yi bor.

Shunday ekan, biz ona tilimizdagi so’zlardan unumli foydalanishimiz keraklidir. Buyuk mutafakkirlarimiz so’z qudratini anglab, o’z ona tilini qadrlagan insonni o’zligi anglagan va iymonini mustahkamlagan deyishadi[23].

Bugungi kunda dunyoning rivojlanayotgan jarayonida biz ham barobar qatnashayotganimiz qaysidir tomondan yaxshi bo’lsada, o’sib ulg’ayayotgan yosh avlodning esa turli tillarni aralashtirib oddiy o’z ona tilidagi so’zlarning ma’nosiga tushunmasligi, xato so’zlashlari achinarli holat bo’lib qolmoqda. Bu turli tadqiqotchilar tomonidan o’ganilmoqda va so’z ma’nolari mavzusi boshlang’ich sinf darslariga kiritildi.

So’z ma’nolari va ko’p ma’noli so’zlar ustida ko’p olimlarimiz ish olib borgan. Jumladan, K.Qosimova, A. G’ulomov, M. Qodirov, M. Ernazarovna va boshqalar bu masalaning umumiy tomoni to’g’risida ishlar olib borgan [6].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. (Leturature review).

Hozirgi davr mamlakatimizning ijtimoiy hayotida insonlarning aloqa almashinuvi bo’lib xizmat qilayotgan ona tilimiz, ko’zga ko’rinmagan holatda jamiyatimiz rivojlanishi va taraqqiyotiga sezilarli ta’sir ko’rsatadi. So’z ma’nolari va tilimizdagi so’zlarning katta qismini tashkil etgan ko’p ma’noli so’zlar to’g’risida ko’p olimlarimiz tadqiqotlar o’tkazgan. Jumladan, A.Hamidov, A.Nurmanov, A.Sobirov, Sh.Yusupova va chet el olimlari V.Vladimirovich, D.Shmelyova va b. juda ko’p ijodkorlarimiz so’z ma’nolari xususida ishlar olib borishgan. Bularning tadqiqotlari ko’p ma’noli so’zlar va ona tilimiz grammatikasi xususida umumiy ma’lumotlar keng yoritilgan. So’z ma’nolari va ko’p ma’noli so’zlar, qo’llaydigan so’zlarimizning 70-80 % ini tashkil etadi. Chunki tilimizdagi har bir ma’no uchun alohida so’z qo’llasak, bu so’zlar soni ko’payib ketib xotirada saqlash mumkin bo’lmay qoladi. Shuning uchun har bir til birligimizdan unumli foydalanib, cheksiz tushuncha

va fikrlarni ifodalashga harakat qilamiz. Bu jarayonda bo'shlang'ich ta'lim ustozlaridan juda katta ko'mak kutamiz[7].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Hozirda bo'shlang'ich ta'lim tizimida ko'p yangiliklar ko'ryapmiz. Bular orasida yuqori sinflarda chuqur o'rganiladigan ko'p ma'noli, ma'nodosh, shakldosh, zid ma'noli so'zlar kabi turli xil mavzulardir. E'tibor berilsa, 5-sinf o'quvchilarining o'qishlari aksariyat holatlarda susayishini, ularda charchoqni kuzatamiz va aybni kimdan izlashni bilmay sarson bo'lishadilar. Shu o'rinda yuqori sinf mavzularini boshlang'ich sinfda oz-ozdan bo'lsada ma'lumot berib ketilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. So'zning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari ko'p ma'noli so'zlar, oddiy bo'lib ko'rinsada, boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'rgatishni to'g'ri yo'lga qo'yish va ijtimoiy hayotda ulardan o'rinli foydalanishga o'rgatish ona tilimizning kelajakda jahondagi o'rnini egallashda yordam beradi[8].

Yangi tushunchani ilgari o'rganilgan tushunchalar tizimiga kiritish tushunchani o'zlashtirish, bilimni nutq tajribasiga tatbiq etishning muhim sharti hisoblanadi. Tushunchalar orasida bog'lanishni vujudga keltirish, amalga oshirish o'quvchilarning o'zbek tilidan egallaydigan bilimlar tizimiga hamda tildan ongli foydalanishiga poydevor bo'ladi. Tushunchalar orasidagi bog'lanishni bilib olish amaliy (grammatik, orfografik, nutqiy) vazifalarni hal qilishda nazariy bilimlarni ko'proq tatbiq etishga imkon beradi.

Tushunchalar orasidagi bog'lanishni aniqlamay, ularni bilimlar tizimiga kiritmay turib, o'quvchilar tilni ongli o'zlashtira olmaydilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlashtiradigan asosiy bog'lanish yo'llari quyidagilar[9]:

1. So'zga beriladigan morfologik so'roqlar va ularning grammatik belgilari (kim?, nima? so'rog'iga javob bo'lgan so'z shaxs va narsani bildiradi → birlik va ko'plikda qo'llanadi → egalik qo'shimchalari bilan o'zgaradi → kelishiklar bilan turlanadi; qanday?, qanaqa? so'rog'iga javob bo'lgan so'z shaxs va narsaning belgisini bildiradi → o'zgarmaydi; necha?, nechanchi? so'rog'iga javob bo'lgan so'z shaxs va narsaning soni va tartibini bildiradi → asosan, o'zgarmaydi; nima qildi? nima qilyapti?, nima qiladi? so'rog'iga javob bo'lgan so'z predmet harakatini bildiradi → bo'lishli yoki bo'lishsiz shaklda qo'llanadi → shaxs-son qo'shimchalari bilan tuslanadi → o'tgan, hozirgi va kelasi zamondan birini ko'rsatadi).
2. So'z turkumi – gap bo'lagi bo'ladi (ot gapda ega yoki ikkinchi darajali bo'lak, sifat – ikkinchi darajali bo'lak, son – asosan, ikkinchi darajali bo'lak, fe'l – kesim vazifasida keladi).
3. Bosh kelishikdagi ot – ega, boshqa kelishiklardagi otlar – ikkinchi darajali bo'lak bo'ladi.
4. Kishilik olmoshlari fe'llarda shaxsni ifodalaydi (agar fe'l men yoki biz olmoshlari bilan qo'llansa, I shaxs, sen yoki siz olmoshlari bilan qo'llansa, II shaxs ifodalanadi).

5. Umumiy o'zak va o'zakkosh so'zlarning ma'nosidagi umumiylik (o'zakning umumiyligi o'zakkosh so'zlarning ma'nosidagi o'xshashlikka sabab bo'ladi).

6. So'zning leksik ma'nosi va uning morfemik tarkibi (so'zning morfemik tarkibi o'zgarsa, ko'proq uning leksik ma'nosi o'zgaradi: gul – gulchi, guldon, gulla kabi)[10].

Ayrim til kategoriyalari bog'lanishining mohiyati yangi til kategoriyasini o'rganish jarayonida ochiladi, shuningdek, bir yoki bir necha til kategoriyasi o'rganilgandan keyin oydinlashadi. Masalan, so'zning leksik ma'nosi va uning morfemik tarkibi so'zning ma'noli qismlarini o'rganish jarayonida biryo'la muhokama qilinadi, chunki u yoki bu morfemaning rolini boshqacha yo'l bilan tushuntirib bo'lmaydi; o'qituvchi so'z tarkibini o'zgartiradi va shu bilan bog'liq holda so'z ma'nosini o'zgarishini ko'rsatadi, bu o'zgarish so'zning qaysi qismi (so'z yasovchi qo'shimcha) hisobiga hosil bo'lganini tushuntiradi: ishchi – ishla – ishchan; paxtakor – paxtazor[11].

Fe'llarning shaxs-sonda tuslanishi kishilik olmoshlari o'rganilgandan so'ng, fe'lda shaxs kishilik olmoshlarining uch shaxsni ko'rsatishi bilan bog'lab o'rganiladi.

Maktabda grammatik materialni o'rganish amaliy yo'nalishga ega bo'lgani va, birinchi navbatda, o'quvchilarning nutqiy va aqliy rivojlanishiga xizmat qilgani uchun, bir til kategoriyasining boshqasiga tobeligini va bir-birini taqozo qilishini tushunish bilan birga, o'quvchilarning bu haqdagi bilimlaridan amaliy vazifalarni hal qilishda, ya'ni so'zlarni yozish, gap tuzish, so'zni tahlil qilishda foydalanishga o'rgatish ham muhimdir. O'qituvchi tilni o'rgatish vazifalarini hisobga olib, doimo o'quvchilarning nutqiy tajribasiga suyanadi va til kategoriyalarining bog'liqligi haqidagi bilimlarni tajribaga tatbiq etish jarayoniga yo'naltiradi [12]. Bilim komponentlari o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash bilimni tajribaga, o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqiga tatbiq etish imkonini beradi.

Ona tilini o'rganish jarayonida bilimlarning izchilligi qanday ta'minlanadi? Avvalo, maktab dasturi lingvistik materialni o'rganishda yangi o'rganiladigan materialning ilgari o'rganilganlar bilan ilmiy asoslangan bog'lanishini aniqlashga imkon beradigan izchillikni ko'zda tutadi. O'qituvchi bu bog'lanishning mohiyatini metodik jihatdan aniq ko'z oldiga keltirishi zarur. O'zaro bog'liq bo'lgan til hodisalarini ketma-ket va parallel o'rganish mumkin. Bularning qaysi biridan foydalanish ma'qulroq degan masala ko'proq materialning lingvistik mohiyatidan kelib chiqib hal qilinadi. Masalan, kishilik olmoshlari fe'ldan oldin o'rganiladi, bu fe'lning shaxs-sonda tuslanishini kishilik olmoshlariga bog'lab o'rganish imkonini beradi [13]. O'qituvchi yangi o'rganiladigan materialni ilgari o'rganilganlar bilan bog'laydi. Buning uchun til tushunchalarini taqqoslaydi va bir-biriga qarama-qarshi qo'yadi. Masalan, so'z o'zgartuvchi qo'shimchalarni o'rganishda ular so'z yasovchi qo'shimchalar bilan taqqoslanadi (so'z yasovchi qo'shimcha yangi so'z hosil qilish uchun xizmat qilsa, so'z o'zgartuvchi

<https://conferencea.org>

qo'shimcha so'zning shaklini o'zgartirish uchun, ya'ni gapda so'zlarni bog'lash uchun xizmat qilishi aniqlanadi).

Tushunchani shakllantirishning turli bosqichida ko'rgazmalilikdan foydalanish katta ahamiyatga ega. Tushuncha belgilari bilan tanishtirishning boshlang'ich bosqichida ko'rgazmalilikdan o'rganiladigan hodisannng belgilarini nutqda aniq ko'rsatish maqsadida foydalaniladi[14]. Til tushunchalarini shakllantirishda foydalaniladigan ko'rgazmali vositalarning o'ziga xos xususiyati o'rganiladigan ob'ekt hisoblangan so'z, so'z birikmasi, gap, gap bo'lagi va boshqalarga mos bo'ladi. SHunday ekan, ko'rgazmali vositalarga jadval, chizma, biror predmet, uning rasmi bilan bir qatorda til materialning o'zi ham kiradi. Tanlangan matnlar, alohida so'z va gaplarda o'rganilayotgan hodisa aniq va lo'nda berilgan, nutqiy vazifasi va grammatik xususiyati ravshan ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Bu ichki ko'rgazmalilik o'quvchilarga tushuncha belgilarini mavhumlashtirish, o'rganilayotgan hodisani biror tomondan o'xshashi bo'lgan boshqa hodisalar orasidan topish imkonini beradi [15].

Masalan, o'zakdosh so'zlarni o'rganishda tarkibida bir necha o'zakdosh so'z bo'lgan matndan foydalanish maqsadga muvofiq:

1. Maktabimiz hovlisida katta gulzor bor. Unga har xil gul ekilgan. Gullarni gulchi o'quvchilar parvarish qiladilar.

2. Rahimning otasi zavodda ishlaydi. U ilg'or ishchi. Rahimning o'zi – ishchan bola. Bu ikki matnda uchtadan o'zakdosh so'z bo'lib, ularning ikki muhim belgisi (bir xil umumiy qismga egaligi va ma'nolaridagi o'xshashlik)ni hisobga olgan holda, o'zakdosh so'zlar yuzasidan umumlashtirish imkoni tug'iladi. Bundan tashqari, o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida o'zakdosh so'zni shu so'zlarning bir shakli bo'lgan so'z (gullarni) bilan taqqoslab, o'zakdosh so'zlar bilan so'z shakli o'rtasidagi farq haqida elementar tushunchaga ega bo'ladilar.

Tushunchaning mohiyatini ochishga qaratilgan vazifalarning o'zi o'quvchilarni ularni bajarishga undashi, majbur etishi lozim. Bu bilan tushuncha ko'rgazmaliligi ta'minlanadi. Masalan, gapnng uyushiq bo'laklari tushunchasining mohiyatini ochishda ikki-uch gapdan bitta gap tuzish vazifasini berish maqsadga muvofiq. Masalan, Bahorda biz qaldirg'ochlarni quvonib kutib olamiz. Bahorda biz maynalarni quvonib kutib olamiz. Bahorda biz chug'urchuqlarni quvonib kutib olamiz. – Bahorda biz qaldirg'ochlarni, maynalarni, chug'urchuqlarni quvonib kutib olamiz. Gaplar gap bo'laklari jihatidan tahlil qilinadi; o'quvchilar uchala gapda takrorlangan so'zlarni aytadilar; bunday hollarda kishilar uch gap o'rniga bitta gapdan foydalanishlarini tushunadilar. SHunday qilib, ular uch gapdan bitta gap tuzadilar, uni gap bo'laklariga ko'ra tahlil qiladilar, chizmasini tuzadilar. Bu vazifalarni bajarish bilan o'quvchilar ko'rgazmali xulosa chiqaradilar: bir kesimga bir necha ikkinchi darajali bo'lak bog'lanishi va ular bir xil so'roqqa (nimalarni?) javob bo'lishi mumkin; bir

<https://conferencea.org>

bo'lakka qarashli va bir xil so'roqqa javob bo'lgan bunday so'zlar gapning uyushtirish bo'laklari deyiladi. Yuqorida keltirilgan misollarda foydalanilgan ko'rgazmalilik o'rganilayotgan til hodisalarining belgilarini ajratishga qaratilgan, ya'ni ko'rgazmalilikdan tushunchani ta'riflashdan oldin foydalanilgan [16].

Darsda foydalanish uchun ko'rgazma material tanlashda o'qituvchi qo'yilgan maqsadga ko'ra o'quvchilar nimani bilib olishlarini aniq ko'z oldiga keltirishi kerak. Bir ko'rgazma materialdan turli maqsadlarda foydalanish mumkin. Masalan, predmet yoki uning rasmidan so'zning leksik ma'nosini tushuntirishda ham, grammatik tushunchani shakllantirishda ham foydalanish mumkin. O'quvchilarni sifatning nutqdagi ahamiyati bilan tanishtirish uchun o'qituvchi berilgan predmetni tasvirlash, uning belgilarini aytish vazifasini topshiradi. O'quvchilar har qanday predmetni tasvirlash uchun o'z nutqlarida sifatlardan foydalanadilar [17]. Bu – tabiiy. O'qituvchi "Predmetni tasvirlashda siz qaysi so'zlardan foydalandingiz? Nima maqsadda?" kabi savollar berib, bolalar diqqatini o'rganiladigan grammatik tushunchaning (bu o'rinda sifatning) belgilariga qaratadi. O'quvchilar predmetni tasvirlash uchun qaysi sifatlardan bir predmetni boshqasidan ajratish maqsadida foydalanganliklarini aytadilar. Bu misolda ko'rgazmali material nutqda grammatik tushuncha (sifat)ning rolini kuzatish maqsadida foydalaniladi va o'quvchilar aniq materialdan umumlashtirishga o'tadilar. Tushunchani shakllantirishni uchun jadval va chizmalardan keng foydalaniladi. Bu ko'rgazmalardan ko'proq tushuncha belgilari ajratilgandan so'ng mavhumlashgan belgilarni umumlashtirish, ular o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash maqsadida foydalaniladi [18].

SHunday qilib, grammatik tushunchani o'zlashtirishga yordam beradigan asosiy metodik shartlar o'quvchilarning aqliy faoliyatini faollashtirish, ularni yangi bilim olish uchun qiziqtirish, o'quvchilarning nutqiy tajribasiga tayanish, bilimlarning tizimliliigi, o'quvchilarda til birliklariga lingvistik munosabatni shakllantirish ustida maqsadga muvofiq ishlash hisoblanadi.

Grammatik va so'z yasashga oid mashqlar. Maktabda tildan nazariy bilimni o'rganishdan maqsad fikrni og'zaki va yozma tarzda grammatik to'g'ri va uslubiy aniq ifodalash uchun undan ongli foydalanish hisoblanadi. Biroq nazariy bilimni amalda qo'llashni esa maqsadga muvofiq va muntazam o'rgatib borish talab etiladi.

Mashqlar tizimi tushunchani o'zlashtirish bosqichiga va uning xususiyatiga mos ravishda mashq turini tanlash, uning murakkablasha borishini va o'quvchilar mustaqilligi o'sib borishini hisobga olgan holda mashqlarni bajarish izchilligini aniqlashni ko'zda tutadi. Bu tizim mashqlarning o'zaro bog'lanishiga asoslangan.

Mashq turlari. Grammatik mashqlar turli asosga ko'ra tasnif qilinadi, shuning uchun mashqning har xil turi hosil bo'ladi. Agar bilimni shakllantirish xarakteriga asoslanilsa, grammatik mashqlar ikki katta guruhga bo'linadi [19]:

<https://conferencea.org>

1) morfologik mashqlar (bunga leksik-morfologik mashqlar ham kiradi);

2) sintaktik mashqlar.

Agar o'quvchilar faoliyatining xarakteri, ya'ni mashq jarayonida o'quvchilar bajaradigan aqliy omillar xarakteri asos qilib olinsa, mashqlar analitik, sintetik, taqqoslashga, guruhlashga, umumlashtirishga oid mashqlarga bo'linadi.

Mashqning o'ziga xos xususiyatlarini aniqroq belgilash uchun yuqoridagi ikki asos hisobga olinadi. Masalan, mashqning vazifasi aralash berilgan so'zlardan gap tuzishni va gap bo'laklarini ajratishni talab etsa, bu mashq bilimni shakllantirish turiga ko'ra sintaktik mashq, faoliyat xarakteriga ko'ra sintetik-analitik mashq hisoblanadi[20].

Boshlang'ich sinflarda sof morfologik yoki sof sintaktik mashq juda kam ko'llaniladi, shuning uchun ham vazifaning yetakchi tomoni hisobga olinadi. Masalan, matnga mazmunga mos otni qo'yish, qaysi kelishik ekanini ko'rsatish talab etilsa, bu leksik-morfologik mashqdir. O'quvchi otning qaysi kelishikda ekanini aniqlash uchun u bog'langan so'z (fe'l yoki ot)ni aniqlashi (so'z birikmasini ajratishi) talab etiladi, shunga ko'ra bu mashq sintaktik mashq hisoblanadi [21].

Grammatik tahlil analitik mashqqa kiradi. Grammatik tahlil so'z turkumiga ko'ra (morfologik) tahlilni, gap bo'laklariga ko'ra (sintaktik) tahlilni o'z ichiga oladi.

Gap bo'laklariga ko'ra tahlil o'quvchilar o'zlashtirgan sintaktik bilimlarning me'yoriga qarab chuqurlashib boradi.

Amaldagi dasturga ko'ra, I sinf o'quvchilari "ega" va "kesim" atamalaridan foydalanmaydilar, ammo ular gapni bosh bo'laklarini amaliy ravishda topish ko'nikmasiga ega bo'ladilar, ya'ni gap kim yoki nima haqida aytilganini bildirgan so'z (ega)ni, u haqda nima deyilganini anglatgan so'z(kesim)ni topadilar. Masalan, Bolalar olmalarni terdilar gapini tahlil qilishda o'quvchilar quyidagicha fikr yuritadilar: "Gap bolalar haqida aytilgan. Kimlar? – bolalar (so'zning tagiga bitta to'g'ri chiziq chizadilar). Bolalar – nima qildilar? – terdilar (so'zning tagiga ikki to'g'ri chiziq chizadilar). Bolalar terdilar – gapning asosiy qismi; nimalarni? (terdilar) – olmalarni"[22].

II sinfda I sinfdagidek muhokama qilinadi, faqat mazmuni chuqurlashtiriladi. Masalan, II sinf o'quvchisi "CHiroyli gullar adirlarni bezadi" gapini quyidagicha tahlil qiladi: "Gap gullar haqida aytilgan. Nimalar? – gullar – ega (tagiga bir chiziq chizadi). Paxtalar haqida nima deyilgan? Ochildi – nima qildi? – kesim (tagiga ikki to'g'ri chiziq chizadi). Qaerlarni? (bezadi) – adirlarni – ikkinchi darajali bo'lak, gapni to'ldirayapti (tagiga uzuq chiziq chizadi). Qanday? (gullar) – chiroyli (gullar) ikkinchi darajali bo'lak, egani izohlayapti. Gullar bezadi – gapning asosi. CHiroyli gullar va adirlarni bezadi – so'z birikmasi".

III-IV sinflarda sintaktik tahlil sifat jihatidan o'zgarmaydi, ammo so'z birikmasini ajratishga ahamiyat beriladi.

<https://conferencea.org>

Morfologik tahlilning mohiyati soʻzning qaysi soʻz turkumi ekani, gapda qanday grammatik shaklda kelganida ifodalanadi.

Toʻliq morfologik tahlilda oʻquvchi soʻz turkumining oʻzi oʻrgangan belgilarini aytadi. Masalan, 1-sinf oʻquvchisi shu soʻz qanday savolga javob boʻlishini va nimani bildirishini aytadi (shaxs yoki narsa, narsa belgisi, harakati).

Xulosa. Xulosa sifatida aytish joizki, faqat yosh-avlod emas, jamiyatda yetarli darajaga ega boʻlgan shaxslar ham oʻz ona tilida toʻgʻri soʻzlashni bilmasligini kuzatamiz. Endi eʼtibor bersangiz oʻz onasini sevmagan, ardoqlamagan insonning boshqa tilni yaʼni boshqa kishining onasini sevishi, ardoqlashi oʻrinlimi? Demak soʻzga, tilga mehrni, toʻgʻri grammatikani yosh niholligida yaʼni boshlangʻich sinf oʻquvchilarida boshlasak, maqsadga muvofiq boʻladi.

ADABIYOTLAR

1. Oʻzbekiston Respublikasining “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonuni. (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi), 2020 y.
2. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: “Oʻzbekiston”, 2017.
3. Karimov I.A. Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Maʼnaviyat, 2008.
4. Sayfullayeva R.va boshqalar. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. - Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2009.
5. Mahmudov N. Davr va ona tili taʼlimi/Yigirma birinchi asrda oʻzbek tili masalalari. - Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007
6. Abdurazakov, F. A., & Meliev, S. K. (2022). Interactive Methods Used In The Formation Of Creative Activity (On The Example Of Primary School Students). Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(1), 257-262.
7. Abdurazakov, F. A., & ugli Odinaboev, F. B. (2022). PEDAGOGICAL IMPORTANCE OF USING MODULE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE SYSTEM OF CONTINUOUS EDUCATION ON THE BASIS OF MODERN APPROACHES. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(1), 173-180.
8. Baxriddin oʻgʻli, F. O., Abdunabiyevich, F. A., & NorboʻTayevna, N. D. (2022). IMPROVING VOCATIONAL EDUCATION IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS BY DEVELOPING PRIMARY MECHANISMS OF NATIONAL CRAFTS. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(02), 577-580.
9. Norbutaevna, N. D., & Kizi, M. R. S. (2022). PEDAGOGICAL SYSTEM FOR FORMING SPIRITUAL COMPETENCE OF STUDENTS IN MODERN CONDITIONS. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(3), 754-760.

10. Abdunabievich, F. A., Ugli, F. O. B., & Norbutaevna, N. D. (2022). TYPES OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES THAT CORRESPOND TO THE SPECIFICS OF MORAL AND AESTHETIC EDUCATION AND TEACHING OF STUDENTS.
11. Khamzaeva, D. S. (2020). THE PROBLEM OF SEASONALITY IN TOURISM. *Theoretical & Applied Science*, (11), 337-340.
12. Samarovna, X. D. (2020). RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TURIZM INDUSTRIYASINING TARAQIY RIVOJLANISHIDA TURISTIK MAHSULOTLAR TAKLIFINI MAVSUMIYLASHTIRILISHI UCHUN USLUBIY YONDASHUVLARNING SHAKLLANISHI. *Иқтисодиётда инновация*, (SPECIAL 2).
13. Пулатова, С. Ю., & Хамзаева, Д. С. (2019). ТУРИЗМ В СИСТЕМЕ МЕЖДУНАРОДНОЙ ТОРГОВЛИ. *Интернаука*, (5-1), 21-22.
14. Khamzaeva, D. S. ASSESSMENT OF THE SEASONAL FACTOR IN REGIONAL TOURISM AND THE WAYS OF ITS USE. *Happy New Year 2021...*, 25.
15. Khamroev, A. (2021). Quality and effectiveness for design of learning outcomes in the language teaching. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 549-558.
16. Khamraev, A. R. (2019). Modeling Teacher's Activity in Designing Students' Creative Activities. *Eastern European Scientific Journal*, (1).
17. Хамроев, А. Р. (2022). БОШЛАНГИЧ СИНФ ОНА ТИЛИ ТАЪЛИМИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТИНИ ЛОЙИХАЛАШТИРИШ. БАРҚАРОРЛИК ВА ЕТАКЧИ ТАДҚИҚОТЛАР ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ, 2(4), 294-305.
18. Hamroyev, A. (2022). RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TA'LIM JARAYONIGA TATBIQ ETISH ZAMONAVIY TA'LIM KONSEPSIYASINING ASOSI. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 35-37.
19. Eshboeva Surayyo Kahramon kizi. (2022). THE CURRENT STATE OF IMPROVING THE CREATIVE APPROACH IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL CONCEPTS IN PRIMARY CLASS STUDENTS. *INTERNATIONAL BULLETIN OF ENGINEERING AND TECHNOLOGY*, 2(10), 21-28.
20. Norqobilova, R. D., & Nazarova, P. Pedagogical Possibilities of education of young generation at Abu Rayhan Beruni teaching. *Web of Scientifical Research Journal*. ISSN, 2776-0979.
21. Norqobilova, R., & To'Rayeva, M. (2022). Importance of talent in child development. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(7), 56-61.

<https://conferencea.org>

22. Шаббазова Дилфуза Рузикуловна (2020). Особенности развития творческой деятельности учащихся начальных классов. Вестник науки и образования, (10-2 (88)), 88-91.
23. Салохитдинова, Н. М., & Эрданаев, Р. Х. (2021). РАҚАМЛИ ДУНЁ ШАРОИТИДА ТАЪЛИМГА ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВНИНГ ПЕДАГОГИК АСОСЛАРИ. Academic research in educational sciences, 2(NUU Conference 1), 271-274.